

## Talabalarda yuqori darajadagi og`zaki nutq (高级口语) ni shakllantirish tamoyillari (xitoy tili misolida)

**Hamdamova Charos, Samarqand Davlat chet tillar instituti**

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada xitoy tili darajasini aniqlash imtihonining muhim va murakkab kompetensiyalaridan hisoblanmish, og`zaki nutq ko`nikmasini rivojlantirish hamda ushbu aspektning aksariyat hollarda talabalarda qiyinchilik tug`diradigan muammoli jihatlarini osonlik bilan bartaraf etish tamoyillari, og`zaki nutqda o`rta darajadan yuqori darajaga o`tish strategiyalari, og`zaki nutqni oshirishda eshitish qobiliyatining ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** 口语, 中级口语, 高级口语, og`zaki nutq, onlayn guruhlar.

**АННОТАЦИЯ.** В этой статье рассматриваются важные и сложные компетенции экзамена по китайскому языку, развитие навыков устного общения и конкретные проблемы этого членства, вызывающие трудности у студентов, стратегии перехода от среднего к продвинутому уровню в устном общении, а также его значение в планирование устного общения.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** 口语, 中级口语, 高级口语, устная речь, онлайн режим.

**ANNOTATION.** In this article discusses the important and complex competencies of the Chinese language software exam, the development of oral communication skills and the specific problems of this membership that cause difficulties for students, strategies for moving from intermediate to advanced level in oral communication, and its importance in oral communication planning.

**KEY WORDS:** 口语, 中级口语, 高级口语, oral speech, online mode.

Xitoy tilida og`zaki nutq darajasini aniqlash boshqa tillardan keskin farq qilib, ushbu kompetensiya uchun alohida HSKK (汉语水平口语考试) tashkil qilingan. Og`zaki nutq qobiliyatini aniqlashga xizmat qiluvchi ushbu imtihon 3 bosqichga bo`linib, sodda, o`rta va yuqori darajalarni qamrab oladi. Sodda va o`rta daraja imtihonlari savollari soni ko`pligiga qaramasdan, savollarning qiyinlik darajasiga ko`ra, talabalar tomonidan 接受 ya`ni osonlik bilan qabul qilinadigan imtihon turi deb e`tirof etiladi.

Yuqori darajadagi og`zaki nutq qobiliyati, umuman xitoy tilida ravon so`zlashish uchun talabgordan doimiy mashg`ulot va o`quv jarayonda xilma-xillik

talab etiladi. Shu bois, quyida xitoy tilida og`zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan turli samarali usullarni ko`rib chiqamiz:

1. Xitoyliklar bilan muntazam so`zlashish. Jamiyat bilan bir qatorda rivojlanib va taraqqiy etib kelayotgan internet asrida ishonchli bo`lgan do`sstar, umuman xitoy tilida so`zlashish mumkin bo`lgan ilovalar ham bunga misol bo`lib, ulardan keng tarqalgan turlari sifatida HelloTalk, Tandem ilovalarini bunga yorqin misol bo`la oladi.

2. O`qituvchi bilan mashg`ulot:

Individual tarzda xitoy tili o`qituvchisi, ayniqsa xitoylik mutaxassis bilan shug`ullanish og`zaki nutqni nafaqat fonetik va grammatik jihatdan yaxshilaydi, balki nutq jarayonida so`zlab turgan shaxsda o`ziga ishonch paydo qiladi.

3. Turli til klublari, to`garak va tadbirlarida ishtirok etish. Hozirgi kunda mamlakatimiz hududida ushbu tilda bemalol so`zlasha oladigan so`zlashuvchilar sonining oshib borayotgani natijasida tashkil etilayotgan turli til klublarida xilma-xil mavzularda so`zlashish ham og`zak nutq darajasini oshirishga xizmat qiladi.

4. Xitoy tilidagi nutqni tinglash. Tinglash kompetensiyasi butunlay alohida aspect bo`lsa-da, og`zaki nutqni usiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Bunga misol qilib, boshlang`ich daraja uchun xitoy tilida suratga olingan turli multfilmlar, o`rta va yuqori darja uchun esa filmlar, videolar hamda YouTube platformasidagi bir qancha podcastlarni misol qilishimiz mumkin. Buning yordamida xitoy tilidagi intonatsiyalar, tonlar, urg`u kabilarni qanday to`g`ri talaffuz qilishga erishiladi.

5. Ovoz chiqarib o`qish va boshqa ovoz ta`sirida qaytarish. Ushbu usul ingliz tilida shadowing deb nomlanib, xitoy tilida ham og`zaki nutqni rivojlantirish uchun ajoyib va samarali usullardan hisoblanadi. Ushbu usulning yutuqli tomoni shundaki, bu usul bilan o`rganuvchining artikulyatsiyasini mashq qilish mumkin. Xitoylik so`zlovchining nnutqini tinglab qaytarish usuli (shadowing) esa, uning talaffuzini xuddi o`zini qaytarish esa xuddi so`zlovchidek so`zlashga va talaffuz qilishga chaqiradi.

6. Mobil ilovalar va onlayn ilovalar. Pleco, Memrise yoki Anki singari mobil ilovalar orqali yangi so`zlar, iboralar va jumlalarni tayyor holda o`rganish bilan bir qatorda nutq jarayonida ulardan to`g`ri va unumli foydalanish mumkin bo`lsa, HelloChinese grammatik qoidalar hamda talaffuzni yaxshilashga ko`maklashadi.

7. Tayyor jumla yoki matnlarni yod olish. Chet tillarini o`rgatishga qaratilgan eski metodikada ham uchraydigan bu usul, bugungi kunga kelib ham o`z ahamiyatini

saqlab qolgan bo`lib, dars jarayonida o`rganilgan xitoycha matnlarni hayot davomida qo`llash bilan, nafaqat jumlalarni to`g`ri talaffuz etish va qo`llashga, balki so`zlash jarayonida so`zlovchida qat`iylikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

8. takrorlash. Yuqorida ayrim usullarda xitoylik so`zlashuvchi sherik va xitoylik mutaxassislar to`g`risida fikr yuritildi. Biroq xitoylik sherik yoki mutaxassis topilmagan hollarda darslik va o`quv materiallarida taqdim etilgan matnlarni takrorlash, ularni hech bo`limganda dars jarayonlari hamda hayolda takrorlash ham samarali usul hisoblanadi.

9. Xitoy tili talaffuzi boshqa tillardan keskin farq qilishi bois, og`zaki nutqda grammatika, intonatsiya, artikulyatsiya bilan bir qatorda ohangga ham e`tibor berish talab etiladi. Bunda o`quvchi o`z nutqini yozib olishi, tinglashi va xatokamchiliklarini bartaraf etishi mumkin bo`ladi.

Har qanday kompetensiyani yaxshilash uchun muntazam olib boriladigan mashg`ulot hamda chuqur va puxta tayyorgarlik samarali usul hisoblanadi. Quyida qo`shimcha tarzda xitoy tilida og`zaki nutq qobiliyatini oshirishga qaratilgan bir qator manbalarni ham keltirib o`tamiz. “短篇中文对话” turkumidagi kitoblar, “汉语口语速成”, “发展汉语：初级口语”, “当代中文口语教程”, “口语实用教程” .

Bugungi kunga kelib, metodika va pedagogika sohasi keng ko`lamda rivojlanayotgani ta`siri ostida, chet tili, xususan, xitoy tili, grammatikasi, o`qish va yozish qobiliyatini oshirish, talaffuz va so`zlashishni yaxshilash singari sohalarda keng ko`lamli ilmiy - tadqiqod ishlari amalga oshirilmoqda. O`ylaymizki, yuqoridagi singari usullardan foydalanib, yuqori darajadagi og`zaki nutq qobiliyatiga erishiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 刘云 新汉语水平考试口语(高级) – 北京大学出版社 2011.11
2. 刘云 新汉语水平考试口语(中级) – 北京大学出版社 2011
3. <https://chatgpt.com/c/6705537b-a4f0-8003-a501-11af6a9ffc62>